

Yulchiyeva Dildora,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bo'limi boshlig'i,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*



OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq allomalarining oila va oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari tahlilga tortilgan. Ularning qarashlarida nafaqat oila xususida, balki oiladagi tarbiya, odob-axloq qoidalari ham batafsil yoritilgan bo'lib, mazkur qarashlarni hozirgi kunda ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo'llasa bo'ladi, ya'ni bular bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Аннотация. В этой статье проанализированы взгляды ученых Востока на семейные отношения. В их взглядах подробно освещены не только вопросы семьи, но и воспитание в семье, правила этикета, и эти взгляды можно использовать и сегодня при подготовке молодежи к семейной жизни, то есть они не потеряли своего значения и сегодня.

Annotation. This article analyzes the views of Eastern scholars on family and family relationships. Their views detail not only family matters, but also family upbringing and ethics, and these views can still be used today in preparing young people for family life, meaning they have not lost their relevance even today.

Tayanch so'zlar: Sharq mutafakkirlari, oila, oilaviy munosabat, barkamol avlod, sog'lom barqaror munosabatlar, rollar taqsimoti, farzand tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy fazilatlar.

Ключевые слова: Восточные мыслители, семья, семейные отношения, гармонично развитое поколение, здоровые устойчивые отношения, распределение ролей, воспитание детей, духовно-нравственные качества.

Key words: Eastern thinkers, family, family relationships, a harmoniously developed generation, healthy stable relationships, role distribution, child rearing, spiritual and moral qualities.

Sharq allomalari fikrlarida oila, uning a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar beriladi. Oilaviy barqaror ijtimoiy-pedagogik qarashlar tizimida Sharq mutafakkirlaridan biri, o'zining tibbiyot sohasiga oid qomusiy bilimlari bilan butun dunyoda tan olingan alloma Abu Ali ibn Sinoning sog'lom barqaror muhitdagi oilaga taalluqli fikrlari alohida o'rin tutadi.

Kirish. O'tmish Sharq mutafakkirlari barkamol shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning ahamiyatini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar, er va xotin axloqiy shakllanganligining farzand tarbiyasida alohida o'ringa ega ekanligini ta'kidlash bilan ular oila butunligi va to'kisligi oila a'zolarining barchasiga bog'liq ekanligiga alohida e'tibor qaratganlar.

Asosiy qism. Qadim-zamonlardan buyon jamiyatning ilg'or kishilari, olimlari, allomalari, donishmandlar oila va nikoh masalalariga alohida e'tibor qaratib kelganlar. Abu Nasr Forobiy¹, Abu Rayxon Beruniy, Kaykovus², Abu Ali ibn Sino³, Yusuf Xos Hojib⁴, Alisher Navoiy⁵, Abdulla Avloniy⁶, Abdurauf Fitrat⁷ kabi ko'plab Sharqning buyuk allomalari o'zlarining oila va oilaviy ijtimoiy munosabatlarda barkamol insonni tarbiyalash masalalariga taalluqli ko'pgina ilmiy va amaliy fikrlarini qoldirib ketganlar. Bu fikrlar hozirgi zamon fani va amaliyoti uchun ham katta ahamiyatga egadir.

Sharq allomalari fikrlarida oila, uning a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar beriladi. Oilaviy barqaror ijtimoiy-pedagogik qarashlar tizimida Sharq mutafakkirlaridan biri, o'zining tibbiyot sohasiga oid qomusiy bilimlari bilan butun dunyoda tan olingan alloma Abu Ali ibn Sinoning sog'lom barqaror muhitdagi oilaga taalluqli fikrlari alohida o'rin tutadi. Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy fikrlar asosida qurilgan. Axloqiy tarbiyada alloma oilaning alohida o'rni borligini ta'kidlaydi. Uning "Tadbiri manzil"⁸ asarida oila va oilaviy barqaror ijtimoiy munosabatlar masalasi alohida o'ziga xos tarzda bayon etilgan.

Ibn Sino oilada sog'lom barqaror munosabatlarning turli jihatlarini yoritarkan, oilada ota va onaning o'zaro rollar taqsimoti masalasiga ham e'tibor qaratganining guvohi bo'lamiz. U, avvalambor, oila boshlig'i, ya'ni urning eng asosiy vazifalaridan biri sifatida quyidagilarni ko'rsatib

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlari. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.

² Кайковус. Қобуснома // 2-тўлдирилган нашри. – Т.: Истиклол, 1994. – 173 б.

³ Ибн Сино Абу Али. Тиб қонунлари. 1-жилд. – Т., 1994. – 304 б.; Ибн Сино Абу Али. Тадбири манзил. – Т., 2017. – 46 б.

⁴ Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг / Сўз боши муаллифи Б.Тўхлиев. – Т.: Юлдузча, 1990. – 189 б.

⁵ Алишер Навоий. Махбуб-ул-қулуб. – Т.: Нашриёт: "Янги аср авлоди". 2019 – 111 б.

⁶ Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.

⁷ Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари // Иккинчи нашр – Тошкент: "Чўлпон" номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2000.

⁸ Ибн Сино Абу Али. Тадбири манзил. – Т., 2017. – 46 б.

o'tadi: "Oila boshlig'i nazariy va amaliy tarafdin oilada tarbiya va uning muhim jihatlari mukammal darjaga o'zlashtirmog'i shart. Agar oila boshlig'i uquvsiz, tajribasiz bo'lsa, u o'z farzandlarini ham yaxshi tarbiyalay olmaydi, u natijada ijobiy natijalarga erisha olmaydi, noto'g'ri tarbiya nafaqat ana shu oila, balki jamiyatga ham salbiy ta'sir etishi mumkin. Oilaviy o'zaro munosabatlarda farzand tarbiyasi uning ota-onasining jamiyatdagi mavqeyidan qat'i nazar, ularning eng asosiy vazifalaridan biridir". Ota-onaning shaxsiy ibrati farzand tarbiyasi uchun alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlar ekan, ota-ona farzand tarbiyasi xususida barchaga o'rnatilgan bo'lmog'i zarurligini ta'kidlaydi, tarbiyachi, ya'ni ota-ona "nafaqat so'z bilan, balki amalda ham bola ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim", – deb yozadi⁹.

Oila barqarorligini ta'minlashda Ibn Sinoning sevgi-muhabbat hamda er-xotin munosabatlari haqidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olimning fikricha, "Eng yuksak sevgi – bu insoniy sevgi hisoblanib, bunday muhabbat insonni saxovatli qilib, uni oqko'ngil va mehribon kishiga aylantiradi". Alloma sevgining inson zimmasiga juda katta ma'naviy-axloqiy mas'uliyat yuklashini alohida qayd etib o'tadi. Mutafakkir kishi baxtining negizi, deganda sevib qolishni emas, balki ikki tomonlama sevgini tushunadi. Er-xotinning sevgi bilan turmush qurish oila mustahkamligining asosi sifatida ta'kidlanadi. Baxtli oila qurish uchun sevimlikning o'zi yetarli emasligini, balki sevil olishga ham erishish zarurligini ibn Sino ta'kidlagani alohida ahamiyatga egadir.

Turmush qurgan er-xotinlar munosabati borasida ibn Sino shunday deydi: "Er kishi – oila boshlig'i, u oiladagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni ta'minlamog'i lozim, negaki bu uning eng asosiy vazifasidir. Ayol – erkakning munosib umr yo'ldoshi, u farzand tarbiyasi xususida eng yaxshi voris hamda yordamchi hisoblanadi"¹⁰. Olimning oilada er-xotin barqaror munosabatlari xususidagi fikrlari ham o'sha davr uchun ham bugungi kun uchun ham o'ta ilg'or va ahamiyatga ega. U xotinlar xulqini eng maqbul, yuksak darajalarga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Ayol kishi aqlli, iboli-hayoli va iffatli bo'lib, sergap bo'lmasligi kerak, shunigdek, u turmush o'rtog'iga bo'ysunishi, uni hurmat qilishi, farzandlar dunyoga keltirishi, doimo halol, samimiy, xushmuomala, to'g'riso'z va kamtarin bo'lishi kerak, qaysar bo'lmasligi, o'z ayollik nafosatini yo'qotmasligi kerak. U aslo o'z turmush o'rtog'iga nisbatan kalondimog'lik, takabburlik hissini namoyon etmasligi, o'z vazifalarini sidqidildan ado etib, oilada tejamkorlikka amal qilmog'i, xatti-harakatlari va xulq-atvori bilan erining ko'nglida hadiksirash hissini keltirmasligi

Oila barqarorligini ta'minlashda Ibn Sinoning sevgi-muhabbat hamda er-xotin munosabatlari haqidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olimning fikricha, "Eng yuksak sevgi – bu insoniy sevgi hisoblanib, bunday muhabbat insonni saxovatli qilib, uni oqko'ngil va mehribon kishiga aylantiradi".

⁹ Ибн Сино Абу Али. Тадбири манзил. –Т., 2017. – 46 б.

¹⁰ Ибн Сино Абу Али. Тадбири манзил. –Т., 2017. – 46 б.

**Kaykovus
o'z o'g'liga
atab yozgan
"Qobusnoma"
asarida barkamol
farzand tarbiyasi,
barqaror
oilaviy hayot,
shaxs kamoloti
masalalariga
to'xtab o'tgan.
Ushbu asarda
oila qurish, oilada
barqaror ijtimoiy
munosabatlarni
tashkil etish
jarayonida
shaxs qanday
xususiyatlarga
ega bo'lishi
lozimligiga, oilada
farzandni tarbiya
qilish vazifasini
amalga oshirish
kerakligi keltirib
o'tilgan.**

hamda oilada barkamol farzandni tarbiyalamog'i kerakligiga alohida e'tibor qaratadi.

Yuqoridagi fikrlardan oila mustahkamligini ta'minlash borasida asosiy talablar ayolga nisbatan qo'yilgandek bo'lib tuyulsa-da, ibn Sino fikrlarida oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va uni ijobiy holatda saqlab turish qanchalik ayol, uning shaxsiga bog'liq ekanligiga alohida to'xtalib o'tilganini ko'ramiz. Bu qarashlar hozirgi davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, chunki oiladagi ijobiy pedagogik-psixologik va tarbiyaviy muhit eng avvalo ayol, ona orqali shakllanishi barchamizga ma'lumdir.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig"¹¹ kitobida va qator boshqa asarlarida o'zining oilaviy hayotga oid qarashlarini alohida to'xtab o'tgan. Asarida u oilaning pedagogik tarbiyaviy ahamiyatiga, barkamol farzand tarbiyasida ota-onaning barqaror munosabatlariga alohida e'tibor qaratadi.

Kaykovus o'z o'g'liga atab yozgan "Qobusnoma"¹² asarida barkamol farzand tarbiyasi, barqaror oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalariga to'xtab o'tgan. Ushbu asarda oila qurish, oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida shaxs qanday xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligiga, oilada farzandni tarbiya qilish vazifasini amalga oshirish kerakligi keltirib o'tilgan.

Bizga ma'lumki, "Qobusnoma" asari pedagogik tarbiya borasida juda ahamiyatli manba hisoblanadi. Asardan ota-onalar uchun, ayniqsa, kelajakda oila qurish niyatida bo'lgan har bir yosh yigit-qizlarni oilaviy hayotga tarbiyalash uchun zarur ko'rsatmalar olish mumkin.

Abu Nasr Forobiyning ilmiy qarashlarida keltirilishicha, "Haqiqiy oilaviy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g'ayirligi, zulmi yo'qolgandagina bo'ladi, oila a'zolarining bir-birlariga barqaror munosabatlari, mehr-u oqibatlari esa ana shu oiladagi barqaror ijtimoiy munosabatlarda oila a'zolarining o'zaro baxtini tashkil qiladi. Har bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolalarda ta'lim-tarbiyaga yo'naltirish holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligini ta'kidlar ekan, Forobiy er-xotinga ota-ona sifatida alohida talablar qo'yilishiga e'tiborni qaratadi"¹³. Bu ilmiy qarashlar alloma asarlarining hozirgi kunda ham ijtimoiy pedagogika fanini o'rganishda naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

¹¹ Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг / Сўз боши муаллифи Б.Тўхлиев. – Т.: Юлдузча, 1990. – 189 б.

¹² Кайковус. Қобуснома // 2-тўлдирилган нашри. – Т.: Истиклол, 1994. – 173 б.

¹³ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.

Mavjud manbalarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga, ularda eng avvalo insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi kerakligiga, oilaviy munosabatlar muqaddas ekanligiga, uni avaylab-asrash aynan er va xotin barqaror munosabatlariga va eng avvalo unda ayollarga bog'liq ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Yana oilaviy barqaror munosabatlardagi turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat xususidagi qimmatli fikrlarni Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub"¹⁴ asarida ham uchratishimiz mumkin. Insonlar uchun eng kerakli o'g'itlarni bayon etar ekan, Alisher Navoiy turmush, oilaviy munosabatlarda hayot jarayonida yaxshi fazilatlarini yoshlarda tarbiyalash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratadi. Mazkur asarning "Uylanish va xotinlar to'g'risida" deb nomlangan bobida Navoiy uylanish va uning yaxshi tomonlari, shuningdek, oiladagi barqaror munosabatlar to'g'risida noyob fikrlarni keltiradi. Risolada oila asosan jamiyat rivoji uchun zarurligi ta'kidlanadi. Insoniy sevgi, chin muhabbat, ikki xil jinsning turmushda barkamollik targ'ib etuvchi g'oyalarni ilgari suruvchi bu nodir asar bugungi kunimizda ham o'z qiymatini yo'qotmaganligini ko'rish mumkin.

Navoiy ayolning oiladagi o'rni va vazifalari xususida to'xtalib, quyidagicha aks ettiradi: "Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo'lsa – ko'ngil yozig'i, xushmuomalada bo'lsa – jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g'am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoni dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo'ladi. Turmushda boshingga har qanday jafo tushsa, hamdarding u. Teskari aylanuvchi falakdan har balo kelsa, ko'makdoshing u. Ko'ngling g'am yuzlansa, u hamroh, badaningga xastalik va zaiflik kelsa, uning ham joni halak, ammo xudo ko'rsatmasin, nomuvofiq xotin uchrasa, o'z uyingda halokatli illat paydo bo'ladi. U beandisha, shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi va yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azob chekadi. Tili achchiq bo'lsa, barchaning dilini yaralaydi, pokiza bo'lmasa, eriga yuzi qoralik keltiradi, agar mayxo'r bo'lsa, uy odoblighi yo'qoladi, axloqsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi"¹⁵.

Oilaviy baxt, muhabbat, oilada er va xotin o'rtasida barqaror samimiy munosabatlari, o'zaro munosabatlarda ijobiy fazilatlari haqidagi fikrlardan boxabar bo'lish hamda ularga amal qilish har bir oilada farovonlikni ta'minlashi shubhasiz.

Navoiy ayolning oiladagi o'rni va vazifalari xususida to'xtalib, quyidagicha aks ettiradi: "Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo'lsa – ko'ngil yozig'i, xushmuomalada bo'lsa – jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g'am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoni dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo'ladi.

¹⁴ Алишер Навоий. Махбуб-ул-қулуб. – Т.: Нашриёт: "Янги аср авлоди". 2019 – 111 б.

¹⁵ Алишер Навоий. Махбуб-ул-қулуб. – Т.: Нашриёт: "Янги аср авлоди". 2019 – 111 б.

**Abdurauf
Fitratning oilada
barqaror ijtimoiy
munosabatlarni
ta'minlash
borasidagi axloqiy
qarashlari,
mikromuhitda
milliy o'zlikni
anglash
to'g'risidagi
g'oyalari uning
"Oila yoki oila
boshqarish
tartiblari" kitobida
yoritilgan. "Oila"
asari o'sha davr
shiddatini o'zida
mujassam-
lashtirgan ilmiy
hamda amaliy asar
hisoblanadi.**

A.Avloniyning "Oila" asaridagi pedagogika va psixologiyaga oid fikrlari ham o'rganishimiz uchun qimmatli manba hisoblanadi. Mazkur asar olimning "Turkiy guliston yoxud axloq"¹⁶, Kaykovusning "Qobusnoma", Navoiyning "Mahbub-ul qulub", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari kabi oilada barkamol farzand tarbiyasi, barqaror oilaviy munosabatlarda oilaning ijtimoiy rolini ochib berishga bag'ishlangan. Avloniy tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning rolini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning fikricha, farzand tarbiyasida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining shakllanishida ijtimoiy munosabatlar, oilaviy muhit hamda bolaning atrofidagi insonlar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bolaning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda barqaror oilaning rolini ko'rsatar ekan, "Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub chiqar..."¹⁷. Demak, Avloniy farzand tarbiyasida oilaning roli eng birinchi darajada turishini ta'kidlaydi: "... tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq lozim ekan. Tarbiyani kim qilur? Qayda qilinur?, degan savol keladur. Bu savolga "birinchi uy tarbiyasi" – bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi – bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir, – degan javob bersak"¹⁸. Avloniy bolaning mukammal barqaror oilaviy munosabatlar tarbiyasi maktab va jamoat tashkilotlarining o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratadi ekan, tarbiya masalasi jamiyatning umuminsoniy vazifalar darajasida ekanligini ta'kidlagan.

Abdurauf Fitratning oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash borasidagi axloqiy qarashlari, mikromuhitda milliy o'zlikni anglash to'g'risidagi g'oyalari uning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" kitobida yoritilgan¹⁹. "Oila" asari o'sha davr shiddatini o'zida mujassamlashtirgan ilmiy hamda amaliy asar hisoblanadi. U o'zgacha bir uslub bilan yozilgan. Zero, o'sha davr oilaviy munosabatlarda mojarolar to'g'risidagi masalalar qaysidir ma'noda badiiy asarlarga ham ko'chgan edi. Asar o'sha davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ham tanqidiy, ham da'vat ruhida yozilgan. Olim yangi oilalarni sog'lom barqaror ijtimoiy munosabatlar ostida oila barpo etishga chaqiradi. Har taraflama sog'lom va barqaror oilada ulg'aygan barkamol farzandlarga yurtini yuksakka ko'tara olishini, uni ichki yemirilish va nizolardan xalos etishini izohlaydi: "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jism-u

¹⁶ Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.:Ўқитувчи, 1992.–160 б.

¹⁷ Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.:Ўқитувчи, 1992.–160 б.

¹⁸ Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.:Ўқитувчи, 1992.–160 б.

¹⁹ Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари // Иккинчи нашр – Тошкент: "Чўлпон" номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2000.

tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor...”²⁰.

Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari, umuman olganda, oilaviy masalarga bag‘ishlangan bo‘lib, xususan, asarning “Uylanish yoki uylanmaslik xususida”, “Qalin (puli) va to‘y qanday bo‘lishi lozimligi haqida”, “Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida”, “Oilaning maishati va idorasi” deb nomlangan qismlarida bu masalalar haqida batafsil fikr yuritilgan²¹.

Fitratning mazkur asari har bir yangi oila uchun dasturilamal vazifasini o‘taydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Asardan oila qurmoqchi bo‘lgan har bir yigit-qizlarimiz axloqiy-maishiy hamda gigiyenik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishlari mumkin. Qolaversa, asarda oilaning tashkil topishidan boshlab to oilaviy munosabatlar barqarorligiga putur yetishigacha bo‘lgan holatlarning axloqiy asoslari ochib beriladi. Ushbu masalalarni asar yaratilgan davr xususiyatlaridan kelib chiqib qaraydigan bo‘lsak, ular juda jiddiy masalalar hisoblanadi. Chunki o‘sha paytda Turkistonda tibbiyot hali yaxshi rivojlanmagan, qolaversa, odamlarning turmush madaniyati ham bunchalik yuqori darajada emas edi. Yozuvchi ko‘plab chet davlatlarda ilmiy izlanishlar olib borganligi tufayli o‘sha davlatlardagi odamlarning turmush tarziga oid ijobiy hamda o‘rganish zarur hisoblangan ko‘pgina tajriba ortirganini asar mazmunidan ko‘rish mumkin.

Fitratning fikricha, er va xotin hamda farzandlardan iborat, bir shaxs boshchiligida, birga yashovchilar oilani tashkil etadi. Asarda, shuningdek, har bir oilaning manfaatlarini himoya qilish uchun turli qonunlar ishlab chiqilgani, ular “manzil tadbir” (ro‘zg‘or tebratish tadbiri) deb nomlangani keltirilib o‘tiladi. Shuningdek, ma‘lum bir mamlakat aholisi axloqsizlik natijasida oilaviy munosabatlariga putur yetkazsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa, ana shu millatning saodati ham, hayoti ham shubha ostida qolib ketishi mumkinligini aytib o‘tgan.

Fitratning bizgacha yetib kelgan merosi bugungi kunda ham oilaviy munosabatlarda ma‘naviy-axloqiy ongimiz, xatti-harakatlarimiz va muomala odoblarimizni ijobiy taraflama rivojlantirish hamda boyitishga katta hissa qo‘sha oladi. Demak, Fitratning yuqorida tilga olingan asari o‘z davrining ham, bugungi kun kishilik jamiyatining ham ma‘naviy dunyosini boyitishda katta ahamiyatga ega.

Fitratning mazkur asari har bir yangi oila uchun dasturilamal vazifasini o‘taydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Asardan oila qurmoqchi bo‘lgan har bir yigit-qizlarimiz axloqiy-maishiy hamda gigiyenik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishlari mumkin.

²⁰ Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари // Иккинчи нашр – Тошкент: “Чўлпон” номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2000.

²¹ Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари // Иккинчи нашр – Тошкент: “Чўлпон” номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2000.

Abdurauf Fitrat “Oila” asarida oilaviy munosabatlarning islohotidan bahs yuritilib, adib barqaror munosabatlarni yoʻlga qoʻyishda najot yoʻllarini axtaradi. Fitratning oiladagi oilaviy munosabatlarda axloqiy tarbiya borasidagi qarashlari islom dinining muqaddas kitobi sanalmish Qurʼoni Karimdagi fikr va gʻoyalarga suyanib yoritadi. Shu tufayli ushbu asar oʻz davrida taraqqiyparvar yoshlar tomonidan iliq kutib olingan.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikrlardan oʻzbek oilasi milliy qadriyatlar asosida oilaviy munosabatlarda barkamol farzand tarbiyalashda qanchalik kuchli pedagogik-psixologik tarbiyaviy qudrat, imkoniyatga ega ekanligi toʻgʻrisida xulosa chiqarishimiz mumkin boʻladi.

Biz oʻz tadqiqot ishmizning yoʻnalishidan kelib chiqqan holda Sharq allomalari merosining qisqacha tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelishni oʻrinli deb hisoblaymiz:

– Sharq allomalari qadim-qadimdan oila, oiladagi shaxslararo munosabatlarga alohida eʼtibor berib kelganlar;

– oiladagi barqaror munosabatlar ijobiy, yaʼni sevgi-muhabbatga asoslangan boʻlganda baxtli oila qurish mumkinligi toʻgʻrisidagi fikrlar Sharq mutafakkirlarida ustuvordir;

– Sharq allomalari oila tizimida er va xotin, ota va ona rollarining differensiallashuviga alohida urgʻu berib, bunda oilaviy munosabatlar tarbiyaning asosiy ustuni sifatida qaraladi;

– tahlildan yana shu narsa maʼlum boʻldiki, oilada ayol oila yadrosi vazifasini bajarishiga alohida urgʻu berilgani holda, ayolning jamiyatda teng huquqliligi eʼtirof etilgan va bu masala doimo tadqiqotchi olimlarning eʼtiborida boʻlib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar.* – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.
2. Кайковус. *Қобуснома // 2-тўлдирилган наشري.* – T.: Истиқлол, 1994. –173 б.
3. Ибн Сино Абу Али. *Тиб қонунлари. 1-жилд.* – T., 1994. – 304 б.
4. Ибн Сино Абу Али. *Тадбири манзил.* –T., 2017. – 46 б.
5. Юсуф Хос Хожиб. *Қутадғу билг / Сўз боши муаллифи Б.Тўхлиев.* – T.: Юлдузча, 1990. – 189 б.
6. Алишер Навоий. *Маҳбуб-ул-қулуб.* – T.: Наширёт: «Янги аср авлоди». 2019 – 111 б.
7. Авлоний А. *Туркий гулистон ёхуд ахлоқ.* –T.: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.
8. Абдурауф Фитрат. *Оила ёки оила бошқариши тартиблари // Иккинчи наشر – Тошкент: “Ўлтон” номидаги наширёт-матбаа ижодий уйи, 2000.*